



## O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSINING GEOGRAFIK YO'NALISHLARI TAHLILI

**Eshanqulov Baxodir**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

ORCID: 0009-0009-2071-1727

[b.eshanqulov@tkti.uz](mailto:b.eshanqulov@tkti.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston tashqi savdosining geografik yo'nalishlari va ularning so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. MDH, SHHT, YeOII, Yevropa Ittifoqi hamda boshqa xalqaro iqtisodiy hamkorlik tuzilmalari doirasidagi savdo aloqalarining holati baholangan. Tahlillar natijasida O'zbekiston eksportida Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiya yetakchi o'rinlarni egallashi, shu bilan birga yangi bozorlarni o'zlashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish tendensiyasi kuchayib borayotgani aniqlangan. Tadqiqot yakunida tashqi savdo samaradorligini oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** tashqi savdo, eksport geografiyasi, eksport diversifikatsiyasi, xalqaro savdo, savdo hamkorlari, MDH, SHHT, YeOII, O'zbekiston eksporti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar.

## АНАЛИЗ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИСТАНА

**Эшанкулов Баходир**

Ташкентский химико-технологический институт

**Аннотация.** В данной статье проанализированы географические направления внешней торговли Узбекистана и тенденции их развития за последние годы. В ходе исследования изучена структура экспорта страны по регионам и основным торговым партнёрам, а также раскрыто экономическое значение диверсификации экспортных рынков. Кроме того, дана оценка состоянию торгово-экономических связей в рамках Содружества Независимых Государств (СНГ), Шанхайской организации сотрудничества (ШОС), Евразийского экономического союза (ЕАЭС), Европейского союза (ЕС) и других международных экономических объединений. Результаты анализа показали, что ведущими направлениями экспорта Узбекистана остаются Россия, Китай, Казахстан и Турция, при этом усиливается тенденция освоения новых рынков и расширения географии экспорта. По итогам исследования разработаны предложения, направленные на повышение эффективности внешней торговли, диверсификацию структуры экспорта и укрепление конкурентоспособности на международных рынках.

**Ключевые слова:** внешняя торговля, география экспорта, диверсификация экспорта, международная торговля, торговые партнёры, СНГ, ШОС, ЕАЭС, экспорт Узбекистана, международные экономические отношения.

## ANALYSIS OF THE GEOGRAPHICAL DIRECTIONS OF UZBEKISTAN'S FOREIGN TRADE

**Eshankulov Bakhodir**

*Tashkent Institute of Chemical Technology*

**Abstract.** *This article analyzes the geographical directions of Uzbekistan's foreign trade and their development trends in recent years. The study examines the structure of the country's exports by regions and major trading partners, while highlighting the economic significance of export market diversification. In addition, the current state of trade relations within the frameworks of the Commonwealth of Independent States (CIS), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), the Eurasian Economic Union (EAEU), the European Union (EU), and other international economic cooperation organizations is assessed. The findings reveal that Russia, China, Kazakhstan, and Türkiye remain the leading destinations for Uzbekistan's exports, while the process of entering new markets and expanding the geographical scope of exports has intensified. Based on the results of the study, recommendations have been developed to improve foreign trade efficiency, diversify the export structure, and enhance competitiveness in international markets.*

**Keywords:** *foreign trade, export geography, export diversification, international trade, trading partners, CIS, SCO, EAEU, Uzbekistan's exports, international economic relations.*

### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida tashqi savdo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tashqi savdo nafaqat milliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlarni yaratadi, balki investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalar transferi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga ham xizmat qiladi. "Yangi O'zbekiston" rivojlanish davrida ham tashqi savdo ochiqligini oshirish, yangi eksport bozorlarini topish va xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlash asosiy maqsad qilib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-apreldagi "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-67-sonli Farmoni (2025) O'zbekistonda ishlab chiqarish, eksport va savdo siyosatini tizimli tarzda modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli huquqiy hujjatdir. Mazkur farmon doirasida, global iqtisodiy xatarlar va o'zgaruvchan tashqi muhitda milliy ishlab chiqaruvchilar va eksportchilarni himoya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va yangi bozor segmentlariga chiqish uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Zamonaviy global iqtisodiyotda xalqaro savdo aloqalarining uzluksizligi va samaradorligi ko'p jihatdan transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-28-sonli qarori mamlakatning xalqaro transport va logistika tizimiga integratsiyalashuvi borasidagi huquqiy va institutsional asoslarni mustahkamlovchi strategik hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Felipe, Kumar va Abdon (2012) o'z tadqiqotlarida eksportning ayrim bozorlarga haddan tashqari bog'lanib qolishi tashqi iqtisodiy xatarlarni kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tashqi talabdagi o'zgarishlarning salbiy ta'sirini kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Brenton va Newfarmer (2009) rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro savdodagi raqobatbardoshligini oshirish masalalarini o'rgangan. Olimlarning fikriga ko'ra, eksport hajmlarini ko'paytirish uchun mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok

etish, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, savdo preferensiyalaridan samarali foydalanish hamda yangi bozorlarni izchil o'zlashtirish zarur.

Krugman (2012) xalqaro savdo nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida mamlakatlarning tashqi savdodagi muvaffaqiyati ishlab chiqarish samaradorligi, miqyos iqtisodiyoti va raqobat ustunliklariga bog'liqligini asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tashqi savdosining geografik yo'nalishlarini tahlil qilishda statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hamda ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari tashkil etdi. Tahlil jarayonida 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston eksportining mintaqalar, mamlakatlar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar kesimidagi ko'rsatkichlari o'rganildi. Eksport hajmlarining dinamikasi, geografik tarkibi va o'zgarish tendensiyalarini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Rivojlanayotgan mamlakatlar eksport salohiyatini oshirish maqsadida bir qator strategik choralardan foydalanishlari lozim (Brenton va Newfarmer, 2009). Jumladan, mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish, savdo imtiyozlaridan samarali foydalanish, xorijiy savdo missiyalarini tashkil etish, B2B platformalari orqali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar yangi bozorlarni o'zlashtirish va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

2024-yilda O'zbekiston eksportining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelib, ularning ulushi umumiy eksport hajmining qariyb 66 foizini tashkil etdi. Biroq mazkur ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 5 foizga qisqargan. Bu holat ayrim tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi, talab hajmining pasayishi hamda logistika tizimidagi qiyinchiliklar bilan izohlanishi mumkin. Shunga qaramay, rivojlanayotgan davlatlar O'zbekiston eksportining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Eng kam rivojlangan mamlakatlar ulushi umumiy eksport hajmida nisbatan kichik, ya'ni 4 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, aynan ushbu guruh davlatlariga eksport hajmi eng yuqori sur'atlarda o'sdi. Xususan, 2024-yilda ushbu yo'nalish bo'yicha o'sish darajasi 29 foizni tashkil etdi. Mazkur holat O'zbekistonning yangi eksport bozorlarini o'zlashtirishga intilayotgani hamda tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish siyosatini izchil amalga oshirayotganidan dalolat beradi. Natijada mamlakatning eksport salohiyati kengayib, an'anaviy bozorlarga qaramlik darajasini kamaytirish imkoniyatlari ortmoqda.

2010–2023-yillar davomida O'zbekiston eksportining mintaqalar kesimidagi dinamikasi tahlil qilinganda, Yevropa mintaqasi mamlakatning eng muhim tashqi savdo hamkorlaridan biri bo'lib qolayotganini ko'rish mumkin. Mazkur mintaqaga eksport hajmi 2010-yildagi 7,9 mlrd AQSh dollaridan 2023-yilda 13,5 mlrd AQSh dollarigacha oshgan. Tahlil qilinayotgan davrda ayrim yillarda, xususan 2014–2016-yillarda eksport hajmining qisqarishi kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda barqaror o'sish tendensiyasi tiklangan. Ushbu jarayon, avvalo, oltin, sanoat mahsulotlari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Kelgusida eksport geografiyasining yanada kengayishi va yangi bozorlarning o'zlashtirilishi kutilmoqda. Ayniqsa, Yevropa bozorlarida talab yuqori bo'lgan ekologik xavfsiz, yuqori qo'shimcha qiymatga ega va xalqaro standartlarga mos sertifikatlangan mahsulotlar ulushini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro sifat talablariga

javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish O'zbekiston eksportining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada mamlakatning tashqi savdo aloqalari yanada diversifikatsiyalashib, eksport salohiyatining barqaror rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Eksportning ayrim bozorlarga haddan tashqari bog'lanib qolishi tashqi savdo xatarlarini kuchaytiradi (Felipe va boshq, 2012). Shu sababli eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish iqtisodiy barqarorlik va eksport hajmlarining barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.



**1-rasm. O'zbekiston Respublikasining qitalar kesimida eksport hajmi**

O'zbekiston eksportida Osiyo mintaqasi Yevropadan keyingi eng yirik yo'nalish bo'lib, 2010-yildagi 5 mlrd AQSh dollaridan 2023-yilda 8,9 mlrd AQSh dollarigacha o'sgan. Bunda Xitoy, Qozog'iston, Turkiya va Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishi muhim rol o'ynagan. Shimoliy Amerika, ayniqsa AQSh bilan eksport aloqalari ham rivojlanib, 2016-yildagi 142,7 mln dollardan 2022-yilda 362,9 mln dollarga yetgan, biroq 2023-yilda 303,2 mln dollarni tashkil etgan.


Afrika bozoriga eksport hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Janubiy Amerika hamda Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari bilan savdo hajmlari esa hozircha past darajada saqlanib qolmoqda. Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichlar O'zbekiston eksport geografiyasining bosqichma-bosqich kengayib borayotganini va yangi bozorlarni o'zlashtirishga qaratilgan siyosat olib borilayotganini ko'rsatadi. Bunda mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

2022–2024-yillarda O'zbekiston tashqi savdosida MDH mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan hamkorlik tarkibida muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, 2022-yilda MDH mamlakatlarining tashqi savdodagi ulushi 20 foizni, boshqa davlatlarning ulushi esa 30,4 foizni tashkil etgan. Bu holat mamlakat tashqi savdo aloqalarining geografik jihatdan kengayib borayotganidan dalolat beradi. 2023-yilda O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 20,8 mlrd AQSh dollarini, boshqa davlatlar bilan esa 42,6 mlrd dollarni tashkil etdi. 2024-yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 23,1 mlrd va 42,8 mlrd dollarga yetib, mamlakatning ham mintaqaviy, ham global savdo aloqalarini izchil kengaytirayotganini ko'rsatdi. Bu jarayon tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2024-yilda O'zbekiston tashqi savdosida SHHT, MDH va YeOII davlatlari muhim o'rin egalladi. Xususan, SHHT mamlakatlari bilan savdo hajmi 31,8 mlrd AQSh dollarini, eksport

hajmi esa 8,8 mlrd dollarni tashkil etdi. MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 23,1 mlrd. dollar, eksport hajmi esa 9 mlrd. dollar bo'lib, bunda Qozog'iston, Rossiya va Qirg'iziston asosiy hamkorlar sifatida ajralib turdi.

YeOII mamlakatlari bilan savdo hajmi 17,5 mlrd AQSh dollariga, eksport hajmi esa 5,8 mlrd dollarga yetdi. Ayniqsa, Rossiya va Qozog'iston bilan energetika, transport hamda sanoat yo'nalishlaridagi hamkorlikning kengayishi iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur tendensiyalar O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalar doirasidagi o'rnini mustahkamlash bilan birga, tashqi savdo salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.



**2-rasm. O'zbekiston Respublikasining mamlakat guruhlari bo'yicha eksport hajmi (mlrd. doll)**


2024-yilda O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirdi. Xususan, IHvaTT mamlakatlari, jumladan Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya bilan sanoat, texnologiya va investitsiya sohalaridagi aloqalar mustahkamlanib, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaydi.

IHT doirasida ham savdo-iqtisodiy hamkorlik faollashib, a'zo davlatlar bilan savdo hajmi va qo'shma tadbirlar soni ortdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, ayniqsa Germaniya va Fransiya bilan hamkorlikning rivojlanishi natijasida to'qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika va sanoat mahsulotlari eksporti kengaydi.

Shuningdek, Qatar va BAA bilan energetika yo'nalishidagi aloqalar mustahkamlanib, mamlakatning energetik salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. YeESU va ASEAN mamlakatlari bilan savdo hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, ijobiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Xususan, Indoneziya va Vyetnam bilan oziq-ovqat, to'qimachilik hamda elektronika mahsulotlari savdosi kengaymoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston eksportida Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya, Tojikiston, Qirg'iziston, AQSh va Pokiston asosiy savdo hamkorlari sifatida ajralib turdi. Mazkur davlatlarga eksport hajmi jami 11 mlrd AQSh dollaridan oshib, mamlakat eksportining muhim qismini tashkil etdi.

Rossiya 3,7 mlrd AQSh dollarlik eksport hajmi bilan yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, Xitoyga eksport 2,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Ushbu ikki davlat O'zbekiston eksportining eng yirik bozorlaridan hisoblanadi. Qozog'iston 1,45 mlrd dollar bilan uchinchi o'rinda qayd etildi. Shuningdek, Turkiya (1,17 mlrd dollar) va Afg'oniston (1,09 mlrd dollar) O'zbekiston uchun istiqbolli eksport yo'nalishlari sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.



**3-rasm. O'zbekiston Respublikasining asosiy eksportni amamlga oshirgan mamlakatlar (ming. doll)**

Yevropa yo'nalishida Fransiya eksport hajmi 795,1 mln dollarni tashkil etib, Yevropa bozorlaridagi pozitsiyalarning mustahkamlanayotganini ko'rsatdi. Tojikiston va Qirg'iziston bilan savdo hajmlari mos ravishda 552,2 mln va 513,3 mln dollarni tashkil etib, mintaqaviy savdo aloqalarining izchil rivojlanayotganini namoyon etdi.

AQSh va Pokistonga eksport hajmi mos ravishda 317,4 mln va 299,5 mln dollarni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston eksport geografiyasining kengayib borayotgani hamda sanoat, oziq-ovqat, farmatsevtika va xizmatlar sohalarida yangi bozorlarni o'zlashtirish jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston tashqi savdo tizimi qator raqobat ustunliklariga ega bo'lib, ular orasida mamlakatning qulay geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, valyuta bozorining liberallashtirish hamda bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli savdo platformalari, elektron to'lov tizimlari va IT xizmatlarining rivojlanishi tashqi savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirmoqda.

Mazkur omillar, shuningdek, an'anaviy savdo hamkorlari bilan barqaror iqtisodiy aloqalarning saqlanib qolishi va yangi bozorlarni o'zlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar O'zbekiston eksport salohiyatining yanada kengayishi hamda tashqi savdo geografiyasining diversifikatsiyalanishiga xizmat qilmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston tashqi savdosining geografik yo'nalishlari sezilarli darajada kengayib, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish borasida muhim natijalarga erishilgan. Mamlakat eksportida Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya va Afg'oniston yetakchi o'rinlarni egallab turgan bo'lsa-da, Yevropa, Afrika, Janubiy Osiyo hamda boshqa yangi bozorlar bilan savdo aloqalari ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Tahlillar eksportning ayrim yirik bozorlarga yuqori darajada bog'liqligi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksport geografiyasini kengaytirish, xalqaro tashkilotlar doirasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish hamda yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat mamlakat tashqi savdo barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning qulay geografik joylashuvi, boy resurs bazasi, iqtisodiy islohotlar va tashqi savdoni erkinlashtirish choralari eksport salohiyatini yanada oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlar asosida tashqi savdoda eksportni kengaytirish uchun quyidagi bir qancha takliflar ishlab chiqildi:

1. Eksport geografiasini yanada diversifikatsiya qilish maqsadida Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish zarur.

2. Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar bozorlariga chiqish uchun xalqaro standartlar va sertifikatlash talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish lozim.

3. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat, farmatsevtika, kimyo va IT xizmatlari eksportini rag'batlantirish eksport tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladi.

4. Savdo vakolatxonalarini faoliyatini kengaytirish, xalqaro ko'rgazmalar va B2B platformalarida ishtirokni kuchaytirish orqali yangi eksport bozorlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini oshirish lozim.

5. Tashqi savdo jarayonlarini raqamlashtirish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish va eksportchilar uchun axborot xizmatlarini takomillashtirish eksport faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar/Jumepamyra/References:**

*Brenton, P., & Newfarmer, R. (2009) Watching More Than the Discovery Channel: Export Cycles and Diversification in Development. World Bank.*

*Eshanqulov B.A. (2025) Yangi o'zbekistonning global raqamli bozorga chiqishida axborot texnologiyalari sohasi eksporti tahlili. Raqamli iqtisodiyot 11-son.*

*Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni.*

*Farmon (2025) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-apreldagi "Ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo va sanoat siyosati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-67-sonli Farmoni.*

*Felipe, J., Kumar, U., & Abdon, A. (2012) How Rich Countries Became Rich and Why Poor Countries Remain Poor. Asian Development Bank.*

*Isayev Q.A. (2021) Xalqaro iqtisodiyot. Darslik. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", -376 bet.*

*Ismailova N.S., Shagazatov U.U. (2019) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar : Darslik / –Toshkent: Noshir nashriyoti, - 320 b.*

*Nazarova, N.M. Salixova. (2011) "Jahon iqtisodiyotining globallashuvi". O'quv qo'llama. TDIU, -320 bet.*

*Paul Krugman. (2012) International Economics: Theory and Policy. Pearson Education.*

*Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. (2015) Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik / –Toshkent: Baktaria press, - 584 b.*